



O'QISH DARSILIKLARIDAGI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH PRINSIPLARI

Isaqov Zokirjon Soliyevich

Qo'qon DU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi. isaqovzokirjon1@gmail.com

Nosirjonova Muniraxon Yodgorbek qizi

"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida savol va topshiriqlar ustida ishlash jarayonining ilmiy-nazariy hamda metodik asoslari yoritilgan. Muallif ta'lim samaradorligini oshirishda savollar va topshiriqlar tizimini to'g'ri tanlash, ularni tabaqalashtirish, izchillik, faollik va mustaqillik prinsiplari asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi, shuningdek, maqolada o'qish darslarida o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish, nutqiy faolligini rivojlantiruvchi interfaol usullar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: o'qish darsi, savol, topshiriq, prinsip, metodika, izchillik, faollik, tafakkur, interfaol ta'lim.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методические основы работы над вопросами и заданиями на уроках чтения в начальной школе. Автор подчеркивает значение правильного подбора и дифференциации вопросов и заданий для повышения эффективности обучения, раскрывает принципы последовательности, активности и самостоятельности учащихся. Приводятся рекомендации по использованию интерактивных методов, направленных на развитие мышления и речевой активности школьников.

Ключевые слова: урок чтения, вопрос, задание, принцип, методика, последовательность, активность, мышление.

Annotation. This article explores the theoretical and methodological foundations of working with questions and tasks in primary school reading lessons. The author emphasizes the importance of proper selection and differentiation of questions and tasks to increase teaching effectiveness. The principles of consistency, activity, and learner independence are analyzed, paper provides methodological recommendations for using interactive techniques that develop pupils' thinking, comprehension, and speech skills.

Keywords: reading lesson, question, task, principle, methodology, consistency, activity, thinking, interactive learning.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida boshlang'ich bosqich ta'limi o'quvchilarning tafakkurini, nutq madaniyatini va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim poydevor hisoblanadi. Ayniqsa, o'qish darslari o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi, estetik didini shakllantiradi, ularda fikrni ifodali bayon etish ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'qish darslarida savollar va topshiriqlar o'quvchilarni fikrlashga undovchi, matn mohiyatini chuqur anglashga yo'naltiruvchi asosiy vositalardir, shuning uchun

o‘qituvchi tomonidan tanlanadigan savollar tizimi ilmiy-nazariy asosga ega bo‘lishi, didaktik prinsiplarga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Zamonaviy ta‘lim konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchi dars jarayonining faol subyekti bo‘lishi kerak[1], bu esa savollarni faqat takroriy emas, balki tahliliy, muammoli, ijodiy shakllarda tuzishni talab etadi.

1. Savollar va topshiriqlarning ta‘limdagi o‘rni

Savollar – o‘qish darslarining eng muhim komponentlaridan biri bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarning matnni tushunish darajasi, tahlil qilish qobiliyati va fikrlash faolligi aniqlanadi.

Boshlang‘ich ta‘limda savollar quyidagi turlarda qo‘llaniladi:

Takrorlovchi savollar — matn mazmunini esga tushirishga yordam beradi.

Tahliliy savollar — o‘quvchilardan mantiqiy izoh va sabab-oqibat bog‘lanishlarini talab etadi.

Ijodiy savollar — o‘quvchining shaxsiy fikrini bildirish, muallif g‘oyasiga baho berish imkonini yaratadi.

Topshiriqlar esa o‘qilgan matn asosida bilimni mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, mustaqil fikrni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, “Matndan qahramonning xatti-harakatini izohlang”, “Matnni yakunini o‘zingizcha davom ettiring”, “Qahramonning joyida bo‘lsangiz, nima qilardingiz?” kabi topshiriqlar o‘quvchilarning tafakkurini faollashtiradi[2;56].

2. Savol va topshiriqlar ustida ishlash prinsiplari

Savol va topshiriqlar bilan ishlashda quyidagi asosiy metodik prinsiplarga amal qilish talab etiladi:

1. Izchillik prinsipi – savollar oddiydan murakkabga, konkret fikrdan umumlashtirishga yo‘naltiriladi.

2. Tabaqalashtirish prinsipi – o‘quvchilarning bilim darajasi va individual xususiyatlariga mos savollar tanlanadi.

3. Faollik prinsipi – har bir o‘quvchi dars jarayonida faol ishtirok etishi, fikrini erkin bayon qilishi uchun imkoniyat yaratiladi.

4. Mustaqillik prinsipi – o‘quvchilar mustaqil javob izlash, fikrini asoslash va tahlil qilishga o‘rgatiladi.

5. Hayotiylik prinsipi – savol va topshiriqlar o‘quvchilarning kundalik hayoti bilan bog‘lanib, ularni real voqelikni idrok etishga yo‘naltiradi.

Bu prinsiplarga amal qilish o‘quvchilarning o‘qilgan matnni chuqur tahlil etish, fikr yuritish, o‘z nuqtayi nazarini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi[3;87].

3. O‘qish darslarida savollar ustida ishlashning metodik yondashuvlari

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida savollarni tanlashda o‘qituvchi quyidagilarga e‘tibor qaratishi zarur:

- har bir savolning maqsadi va natijasi aniq bo‘lishi;
- savollar o‘quvchining yoshiga, fikrlash darajasiga mos bo‘lishi;
- savollarni turli metodlar (klaster, muammoli vaziyat, insert, savol-zanjir) asosida berish.

Masalan, “Insert” texnikasidan foydalangan holda o‘quvchilar matndan yangi ma’lumotlarni belgilaydi, shaxsiy fikrini ajratib ko‘rsatadi; “Klaster” usuli esa

asosiy g‘oya va qahramon xatti-harakatlarini mantiqiy tarmoqqa joylashtirishga imkon beradi.

4. Topshiriqlar tizimini tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari

Topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular:

- taqqoslashga asoslangan (ikki obrazni solishtiring),
- ijodiy xarakterdagi (matnga yangi yakun yozing),
- tahliliy (qahramon xatti-harakatini baholang) turlarda bo‘lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash (masalan, “LearningApps” orqali interaktiv topshiriqlar yaratish) dars jarayonini qiziqarli qiladi va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida savollar va topshiriqlar ustida ishlash jarayoni o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va ijodiy yondashuvni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Savollarni ilmiy asosda tanlash, ularni izchil va tabaqalashtirilgan shaklda qo‘llash dars samaradorligini oshiradi.

O‘qituvchilar savollarni faqat matn mazmunini qayta aytish uchun emas, balki o‘quvchilarni tafakkur faoliyatiga jalb etuvchi vosita sifatida ko‘rishlari zarur. Shu yo‘l bilan boshlang‘ich ta‘limda o‘qish darslari nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi jarayonga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2019.

2. Karimova R., To‘rayeva M. Boshlang‘ich ta‘limda o‘qish metodikasi. – Toshkent, 2021. – 136 b.

3. G‘ulomov S., Rahmonova Z. O‘qish darslarini samarali tashkil etish usullari. – Toshkent, 2022. – 128 b.